

HUDUDLARDA SANOAT BOSHQARMASIGA ILMIY YONDOSILISH VA ULARNING TASNIFI

M.M.Axmadjonov¹ 

1. Xamkorbank ATB, Andijon, O'zbekiston.

Correspondence: Akhmadjonov Mashkhurbek Makhmudovich, *Leading Specialist of the Department of Corporate Client Attraction and Sales, JSCB Hamkorbank, Andijan, Uzbekistan.* **e-mail:** Mashxurbek7953@gmail.com

Received: 02 February 2025; **Accepted:** 20 March 2025; **Published:** 25 March 2025.

Abstract. Maqolada mintaqalarda sanoatni boshqarish va ularning tasnifi bo'yicha ilmiy qarashlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, innovatsiya - o'zgarish sifatida, innovatsiya - jarayon sifatida, innovatsiya - natijada, yangilik va innovatsion rivojlanishning uch darajali «kvadrant» tuzilmasi ham ochib berilgan.

Keywords. innovatsion rivojlanish, iqtisodiy o'sish, iqtisodiy rivojlanish sifati, transformatsiya, modernizatsiya, mahsulot innovatsiyalari, ijtimoiy va texnologik taraqqiyot.

“Innovatsion rivojlanish” tushunchasining hozirgi davrdagi talqini iqtisodiy rivojlanishning umumiy nazariyasidagi asosiy tamoyillar va qoidalardan ajralmas holdadir. Bunda “iqtisodiy o'sish” deganda “ijtimoiy va texnologik taraqqiyot ehtiyojlari bilan mos holda iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurish, sifat jihatidan o'zgartirish, aholi turmushining shart-sharoitlari va sifati takomillashishini, iqtisodiy yuksalishni, tuzilmaviy o'zgarishlarni aks ettiruvchi ko'p o'lchamli rejali jarayon” [17] tushuniladi.

Bir qator tadqiqotchilar “iqtisodiy rivojlanish sifati” [15] kategoriyasini muomalaga kiritishni taklif qiladilar, bunda u “...ilmiy-texnik o'zgarishlar jarayonlarini generatsiyalash qobiliyati bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Aks holda, gap iqtisodiy o'sish shaklidagi iqtisodiy takror ishlab chiqarish haqida boradi” [16].

Shunday qilib, iqtisodiyotdagi sifat o'zgarishlar asosini ilmiy-texnik taraqqiyot natijalari tashkil etadi. Bunda innovatsiyalar takror ishlab chiqarish omili bo'lib o'rtaq chiqadi. Mana shu ta'kidlab o'tilganlarga bog'liq holda innovatsion rivojlanishni tadqiq qilish va modellashtirishning nazariy-metodologik asoslarini belgilab olish lozim bo'ladi. Ishda xususan, innovatsion rivojlanishning nazariy jihatlari yoritib beriladi [13].

Innovatsiyalar nazariyasining asoschilaridan bo'lib sovet iqtisodchi-olimi N.D.Kondratev va kelib chiqishi avstriyalik bo'lgan amerikalik olim Y.Shumpeter sanaladilar. N.D.Kondratev isbotladiki, jamiyat iqtisodiy tuzilmasidagi o'zgarishlar ikkilamchi, modernizatsiyalovchi ijtimoiy-iqtisodiy yangiliklarni o'z ortidan yetaklab keladigan tayanch yangiliklarning amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi. Bu olimning asosiy g'oyalarini Y.Shumpeter rivojlantirdi va u 1911 yilda tub texnologik transformatsiyalarni rag'batlantirish iqtisodiy cho'kishlarni jadallashgan holda yengib o'tish uchun imkoniyatlar yaratishini asoslab berdi. Keyinroq, XX asrning 30 yillarida olim “innovatsiya” tushunchasini ilmiy-iqtisodiy muomalaga kiritdi. Amalga oshirilgan tahlil ko'rsatganidek, hozirgi zamon bosqichida innovatsion faoliyat muammolarini o'rganishga bag'ishlangan xorijiy va milliy maxsus ilmiy adabiyotlarda “innovatsiya” tushunchasiga turli xildagi yondashuvlar keltirib o'tilgan. Bir qator tadqiqotchi-olimlar [3] innovatsiyalarning asosini o'zgarishlar tashkil etadi deb hisoblaydilar. Ular tovar yoki ishlab chiqarish jarayonining o'zgarishida, korxona ishlab chiqarish mexanizmining dastlabki boshlang'ich tizim sifatida faoliyat ko'rsata boshlashida va shu kabilarning o'zgarishlarida namoyon bo'lishi mumkin. Bunda ularning xususiyatli jihati bo'lib yangilik sanaladi.

L.Vodachek va O.Vodachkovalarning ta'kidlab o'tishlaricha, innovatsiyalar ham miqdoriy, ham sifat o'zgarishlarida ifodalanishlari mumkindir [5].

Ayrim olimlar [2] innovatsiyani jarayon sifatida olib qaraydilar. Shunga ko'ra, Z.P.Rumyantseva, N.A.Salomatin, R.Z.Akberdin, V.A.Balukova, I.A.Sadchikov, V.E.Somov, M.Todaro, B.Santo kabi tadqiqotchi-olimlar innovatsiya – bu yangilikdan, ixtiro-kashfiyotlardan foydalanish jarayonidir deb hisoblaydilar. L.Zolotova, O.Yeremenko, Dj.Brayt esa innovatsiyani bilimlarni egallash va ulardan amaliy foydalanish sifatida “innovatsion jarayon” tushunchasiga yaqin deb ta'riflaydilar. T.Brayan, B.Tviss esa, innovatsiya g'oya iqtisodiy mazmunga ega bo'ladigan jarayonni namoyon qiladi deb ta'kidlab o'tadilar.

Ayrim tadqiqotchi-olimlarning [1] ilmiy ishlarida innovatsiyaga natija sifatida ta'rif beriladi. Bunda ilmiy-iqtisodiy adabiyotlar sharhi olimlar tomonidan innovatsiyalarning paydo bo'lishiga nisbatan turli xil qarashlari mavjudligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, D.I.Kokurin, G.D.Kovalev, D.D.Sokolov, A.B.Titov, M.M.Shabanova innovatsiya faoliyat yakunidir degan xulosaga keladilar. I.T.Balabanovning fikricha, innovatsiya yangi texnologiya, texnika va shu kabilarga kapitalni kiritish natijasi bo'lib sanaladigan natijadir. R.A.Fatxutdinov esa, innovatsiya – bu yangilikni joriy qilishning yakuniy natijasi deb ta'kidlaydi.

Iqtisodiy va moliyaviy atamalar izohli lug'atida esa innovatsiya yangilik bilan bir ma'noli deb talqin qilinadi. Bulardan tashqari, o'zbekistonlik iqtisodchilardan Sh.N.Zaynutdinov [6], D.I.Raximova [12], R.I.Nurimbetov [9], N.A.Rasulov [11] kabi tadqiqotchi-olimlar ham innovatsiyalarning mazmun-mohiyatiga tegishli ma'lum bir yondashuvlarni taqdim etganlar. Mazkur olimlarimizning innovatsiyalar mohiyatiga nisbatan yondashuvlari o'zaro bir-biriga yaqin bo'lsada, lekin ma'lum bir farqli jihatlarga ham egadir.

Shunday qilib, milliy va xorijiy tadqiqotchi-olimlarning “innovatsiya” atamasi mohiyatini belgilash bo'yicha ilmiy ishlarda berilgan tahlil hamda umumlashtirishlar asosida mazkur tushunchani quyidagicha ta'riflash mumkin bo'ladi.

Innovatsiyalar nazariyasi yuzaga kelishining hozirgi davr bosqichida “innovatsiya” tushunchasining umumqabul qilingan yagona mazmuni ishlab chiqilmagan. Yuqorida ko'rib chiqilgan ta'riflarda mazkur tushuncha aniq formal vaziyatga nisbatan tadqiqot obyekti va predmetiga bog'liq holda talqin qilinadi. Bunda rivojlanish jarayoni o'zida tizimlar (ijtimoiy-iqtisodiy, texnik va shu kabi tizimlar)ning innovatsiyalar asosida yanada mukammalroq holatga o'tishlarini namoyon qilib, bu ko'p sonli va butunlay har xil usullar yordamida amalga oshishi mumkindir. “Bu tadqiq etilayotgan tushunchaning son-sanoqsiz miqdordagi tushunchalar yuzaga kelishi imkonini tushuntiradi. Milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlardagi qarashlarning yakunlarini umumlashtira turib, innovatsiyalar mohiyatini tushunishga bo'lgan quyidagicha yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin: innovatsiyaning jarayon; natija, o'zgarishlar; yangilik sifatida olib qaralishi” [13].

Iqtisodiy kategoriya sifatida innovatsiya bozorda sotiladigan yangi mahsulot yoki texnologiyani yaratish bo'yicha faoliyat natijasini bildiradi.

Sanoat korxonalarining rivojlanishi nuqtai nazaridan innovatsiyalarni faoliyatning turli sohalaridagi yangilik sifatida olib qarash mumkin bo'lib, bunda ular tijoratlashtirish salohiyatiga ega bo'ladi – bu salohiyatning yuzaga chiqarilishi iqtisodiy samara olishni kafolatlaydi.

Milliy va xorijiy tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda biz o'z ilmiy ishimizda shunday xulosaga keldikki, bunga ko'ra “innovatsion rivojlanish – bu birinchi o'rinda mamlakat aholisi turmushining sifati ortishidek yakuniy maqsadga ega bo'lgan jamiyat hayotining barcha sohalariga innovatsiyalarning singib kirib borishi, sanoat tarmoqlarida ishchi-xodimlarning malakasi oshishi bilan boradigan va buni ta'minlaydigan innovatsiyalarni tizimli ishlab chiqish va joriy qilishga tayanadigan iqtisodiy o'sishning yangi sifatiga o'tish jarayonidir”. Innovatsion rivojlanish ishlab chiqarishda texnik-texnologik darajaning ortishi hisobiga ta'minlanadi va innovatsiyalarni amalga oshirish natijasida mahsulot ishlab chiqarish sarf-xarajatlarini kamaytirish, nomoddiy aktivlardan foydalanish asosida mahsulotning qo'shilgan qiymatini oshirish va shu kabilarga imkon beradi.

“Innovatsion rivojlanishni ta'minlashga metodologik va konseptual yondashuvlar ilmiy-tadqiqotchilik adabiyotlarida sezilarli miqdordagi bahs- munozaralarning predmetini namoyon qiladi.

Innovatsion rivojlanishning asosiy subyektlari, innovatsion rivojlanishda davlatning o'rni va boshqalar haqidagi masalalar munozarali xususiyatga egadir" [10]. Shu bilan birga, innovatsion rivojlanishga, tizimli yondashuv metodologiyasining umum tan olinganligini, ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi sharoitlarida uning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham printsiptial ahamiyatga ega bo'lishini ta'kidlab o'tish lozimdir. Bu ishlab chiqarishda ishlanmalardan foydalanish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish ehtiyoji bilan belgilanadi. Mana shu jihatlar "milliy innovatsion tizim" (MIT) deb nom olgan yangi konsepsiyani ishlab chiqish, rivojlantirish va qabul qilishni shartladi. Mazkur atama birinchi bor 1987 yilda K.Frimen tomonidan ishlatilgan bo'lib, bunda u Yaponiyaning urushdan keyingi yillarda rivojlanishini ta'minlagan yapon milliy innovatsion tizimining eng muhim elementlarini bayon qilib berdi.

Iqtisodiy fanda mamlakat raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy o'sish doimiyliigi va barqarorligiga ta'sir ko'rsatish nuqtai nazaridan milliy innovatsion tizimni rivojlantirishning yo'nalishlari, tuzilmasi, maqsadlarini shakllantirishga yaxlit yondashuv hali yaratilmagan. Tor ma'noda MIT diqqatni texnologiyalar, ilm-fan, korxonalar ish olib boradigan va innovatsion rivojlanishga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan elementlarga jamlashni ko'zda tutadi. Bu MIT ning o'zaro bog'langan elementlari va institutsional tuzilmalarning katta jamlanmasi bo'lib, mana shunda MIT konsepsiyasidagi tizimli yondashuv namoyon bo'ladi. tizimning bosh komponentlari (institutlar va ular orasidagi aloqalar) shakllantrilgan maqsadlarga erishish uchun ongli yoki spontan holda o'zaro harakat qiladilar.

MIT konsepsiyasini o'rganishga talab quyidagilar bilan shartlangan:

MIT tushunchasi innovatsion jarayonlarning mohiyatini tushunishdagi eng zamonaviy qarashlarni o'zida aks ettiradi;

MIT tushunchasi innovatsion faoliyat mazmuni va shart-sharoitlaridagi o'zgarishlarni aks ettiradi;

MIT tushunchasidan kelib chiqadigan tadqiqotlar texnologik va sanoat siyosatini ishlab chiqish uchun asoslarni yaratadi [12].

MIT rivojlanishi strategiyasi shakllantirilgan va amalga oshirilgan davlat makroiqtisodiy siyosati, davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlari, qonunchilik ta'minoti, innovatsion salohiyat holati, mamlakatdagi tovar, xizmatlar va mehnat bozorlari, xususan, mavjud an'analar, madaniy belgilar bilan belgilanadi. Mamlakatda MIT shakllanishi yo'lida quyidagi vazifalarni hal qilish zarurati paydo bo'ladi:

- innovatsion tadbirkorlik mavjud bo'lishining qulay muhitini yaratish;
- ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha sa'y-harakatlarni (xalqaro, milliy va mintaqaviy miqyoslardagi) konsentrsiyalashga bog'liq holda raqobatchilikdagi ustunliklarga ega bo'lish.

Mamlakatimiz sharoitlarida davlat innovatsion strategiyasining ustuvor maqsadi bo'lib uchta asosiy tomonlar – hukumat muassasalari, akademik sektor va biznesning hamkorligi samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan milliy innovatsion tizimni shakllantirish hisoblanishi zarurdir [4].

Bu strategiyaning afzalliklari tuzilmaviy o'zgarish; barcha elementlarni qayta tashkil etish; yopiq, ajralmas holdagi milliy innovatsion sikl; resurslarning ekzogen manbalari past darajadaliigi; davlat tomonidan to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish metodlarini bilvosita cheklash ustun bo'lishi; innovatsion rivojlanish uchun shart-sharoitlarni shakllantirish; xususiy biznes ishtirokining oshirilishi; innovatsion infratuzilma kengaytirilishi; xalqaro aloqalar va moliyalashtirishning barqarorligidan iborat bo'ladi.

Kamchiliklari bo'lib esa, strategiyadan uzoq vaqt davomida foydalanish sharoitlarida innovatsion tizim rivojlanishidagi turg'unlik; ilmiy-texnik taraqqiyot, yangilanish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, innovatsiyalarni amalga oshirish sur'atlari pasayishi; yangi texnologik ukladga o'tishning murakkabligi kabilar sanaladi. Shunday qilib, hozirgi zamon sharoitlarida MIT ni yaratish strategik vazifa sifatida olib qaralishi mumkin bo'lib, uning hal etilishi sezilarli darajada davlatning siyosiy-iqtisodiy tuzilishiga bog'liq bo'ladi. Bunda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining bosh vazifasi firmalar uchun o'zlarining ITTKIni olib borish, innovatsiyalarni joriy

qilish, shuningdek, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun rag'batlarni yaratishdan, innovatsion jarayonlar ishtirokchilari orasida samarali o'zaro aloqalarni ta'minlashdan iborat bo'ladi. Innovatsiyalar birinchi o'rinda mamlakatning sanoat majmuasi uchun talabga ega bo'lishi lozimdir.

G'arb mamlakatlarida MIT konsepsiyasi ta'siri ostida ilmiy-texnik siyosat kengaytirilgan. Uning davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash davomida ilmiy- texnik bilimlar yaratilishini rag'batlantirishga hozirda mavjud bo'lgan yo'naltirilganligiga qo'shimcha tarzda innovatsion tarkibiy qism ham qo'shilib, bunda u davlat-xususiy sherikchiligi asosida ishlab chiqariladigan innovatsion mahsulotlarga talabni rag'batlantirishga mo'ljallanadi [7]. Innovatsion tizimlarni tashkil etishda eng katta muvaffaqiyatga Shveytsariya, Shvetsiya, Germaniya, Finlyandiya, AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlar erishgandir. Buning natijasida ular innovatsiyalar indeksi bo'yicha dunyo mamlakatlari reytingida yuqori o'rinlarni egallab keladilar [18].

Global innovatsion indeksning tarkibiy qismlari tahlili ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi uchun eng yuqori ko'rsatkich bo'lib inson kapitali, YAIM tuzilmasida ta'limga sarf-xarajatlar ulushi, oliy ma'lumotli aholi ulushi, ilmiy va ilmiy-tadqiqotchilik ishlari bilan band bo'lganlar soni kabilar sanaladi. Bu boradagi eng qoloq ko'rsatkichlar bo'lib infratuzilma rivojlanganligi darajasi, investitsiyalardan foydalanish darajasi, kreativ faoliyat darajasi va shu kabilar hisoblanadi. Mamlakatning mavjud innovatsion salohiyati nafaqat uning kelgusida yanada rivojlantirilishi uchun qulay shart-sharoitlarga ega bo'la olmayapti, balki buning ustiga undan foydalanish samaradorligi ham juda pastdir.

Aniqlanganki, O'zbekiston Respublikasida cheklangan investitsion va byudjet resurslari sharoitlarida milliy va mintaqaviy innovatsion tizimlarning shakllanishi, rivojlanishi jarayoni epizodik va notizimli ko'rinishga ega, chunki aniq va samarali davlat innovatsion strategiyasi, uzoq muddatli innovatsion rivojlanish dasturi mavjud emas. Bu jarayonning faolligi darajasi esa garchi, 2017 yil boshlarida bu borada katta siljishlar uchun zamin hozirlab berilgan bo'lsada, lekin baribir asosan alohida institutlar va korxonalarning xohish-istaklariga bog'liq bo'lib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- [1] Балабанов, И.Т. Инновационный менеджмент [Текст] – СПб.: Питер, 2001. – 304 с.; Бернар, И. Толковый экономический и финансовый словарь: 2 т. / И. Бернар, Ж.-К. Колли; пер. с фр. – М.: Международные отношения, 1994. – 720 с.
- [2] Балукowa, В.А. Управление инновационными процессами на предприятиях химической и нефтехимической
- [3] Будавей, Ю.В. Долгосрочные народно-хозяйственные программы [Текст] / Ю.В. Будавей. – М.: Мысль, 1980. – 207 с, Вардомский, Л.Б. Внешнеэкономическая деятельность регионов России [Текст] / Л.Б. Вардомский. – М.: КноРус, 2010. – 448 с.
- [4] Бунчук М.А. Национальные инновационные системы: основные понятия и приложения (по материалам зарубежных авторов). [Электронный ресурс] / М.А. Бунчук. – Режим доступа: <http://www.geocities.ws/CollegePark/Lab/5590/nis.htm>.
- [5] Вардомский, Л.Б. Внешнеэкономическая деятельность регионов России [Текст] / Л.Б. Вардомский. – М.: КноРус, 2010. – 448 с.
- [6] Зайнутдинов Ш. Н. и другие «Инновационный менеджмент» Учебник ТТУ.2010 г.
- [7] Иванов, В.В., Матирко, В.И., Плетнев, К.И. Проблемы и перспективы развития российских территорий высокой концентрации научно-технического потенциала [Текст] / Иванов, В.В., Матирко, В.И., Плетнев, К.И. – М.: СКАНРУС, 2001. – 317 с.
- [8] Инновационные контуры мировой экономики: (Прогноз развития на 2000-2015 гг.) / М.В. Грачев, А.А. Дагаев, А.А. Дынкин и др.; РАН. Ин-т мировой экономики и междунар. отношений. – М., 1999. – 81 с.
- [9] Нурымбетов Р.И. «Инновационный менеджмент» Ташкент, ТАСИ, 2012.
- [10] Промышленности [Текст] / В.А. Балукowa, , И.А. Садчиков, В.Е. Сомов. – СПб.: СПбГИЭУ, 2003. – 147 с.;

- [11] Расулов Н.А. Зайнутдинов Ш.Н. «Инновационный менеджмент» Учебник. МИР 2020 г
- [12] Рахимова Д.И., и другие «Инновационный менеджмент» Ташкент «Академия» изд 2007 г
- [13] Теребова С.В.. Активизация инновационного процесса в регионе [Текст]: монография / С.В. Теребова, Губанова Е.С.. – Вологда: ВНКЦ ЦЭМИ РАН, 2009. – 179 с.
- [14] Теребова, С.В. Роль трансфера и коммерциализации научных разработок в инновационном развитии территорий/ С.В. Теребова // Проблемы развития территорий. – 2015. – №6. – С. 7-28.
- [15] Шинкевич, М.В. Методология институционализации устойчивого инновационного развития хозяйственных систем [Текст]: дис. докт. эконом. наук / М.В. Шинкевич. – Казань, 2011. – 422 с.
- [16] Шинкевич, М.В. Методология институционализации устойчивого инновационного развития хозяйственных систем [Текст]: дис. докт. эконом. наук / М.В. Шинкевич. – Казань, 2011. – 422 с.
- [17] Экономический глоссарий Всемирного банка [Электронный ресурс]. – Режим доступа: www.worldbank.org.
- [18] Global Innovation Index [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.wipo.int>.